

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

NEMIS TILI TARIXI VA UNDAGI NUTQIY ETIKET BIRLIKLARINING AHAMIYATI

Shahnoza Nazarova

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

shahnoza.nazarova93@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada nemis tilining taraqqiyot bosqichlari, undagi nutqiy etiket birliklari va ularni o'rganishning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, taraqqiyot, etiket, dialekt, nutq.

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы развития немецкого языка, единицы речевого этикета в нем и значение их изучения.

Ключевые слова: язык, культура, развитие, этикет, диалект, речь.

Abstract. This article will talk about the progress of the German language, the units of speech etiquette in it and the importance of their study.

Keywords: language, culture, progress, etiquette, dialect, speech.

Yer yuzida 2500 tadan 7000 tagacha tillar mavjud bo'lib, ularning faqat 230 tasi orqali Yevropada va 2000 dan ortig'i yordamida Osiyoda so'zlashiladi. Papua-yangi Gvineyada, 3,9 milliondan ortiq aholisi bo'lgan kichik bir mamlakat Okeaniyada 830 xil tilda so'zlashuvchilarni uchratish hayratlanarli hol, albatta.

Nemis tili jahon tili bo'lmasa-da, u birinchi navbatda Yevropada tijorat tili sifatida muhim bo'lib qolmoqda. U yerda nemis tili rus tilidan keyin ikkinchi o'rinda, ingliz, italyan, fransuz va boshqa ko'plab tillardan oldingi qatorda turadi. Nemis tili Yevropa Ittifoqining 24 ta rasmiy tillaridan biri bo'lib, ingliz va fransuz tillari bilan bir qatorda Yevropa Ittifoqining ishchi tili hisoblanadi. Nemis tili internetda ham muhim rol o'ynaydi. Shunisi e'tiborga molikki, bugungi tasnifga asosan, Vikipediya onlayn lug'atida uzoq vaqtdan beri saqlanib kelinayotgan maqolalar soniga ko'ra ikkinchi o'rinni egallaydi (inglizcha: uch milliondan ortiq maqolalar, nemischa: bir milliondan ortiq, fransuz, italyan: bir millionga yaqin maqolalar). [1.58]

Nemis tili bugungi kunda 100 millionga yaqin odamning ona tili hisoblanadi. Ularning aksariyati Germaniya Federativ Respublikasi, Avstriya, Shveysariya va Lixtenshteynda yashaydi. Ushbu mamlakatlar bir xil yozma tildan foydalanadilar, ammo dialektlarda katta farqlar mavjud. Shuningdek, Janubiy Tirol (Shimoliy Italiya), Lyuksemburg, Belgiya va Elzasda (Fransiya) nemis tilida so'zlashadigan joylar mavjud. Polsha, Chexiya, Vengriya, Ruminiya va Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga kiruvchi mamlakatlaridagi kam sonli nemis millati vakillari ham nemis tilini qisman saqlab qolishgan. Biroq, nemis tili chet tili sifatida butun dunyoda

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

o‘rganiladi. Dunyo bo‘ylab ko‘p sonli odamlar nemis tilini chet tili sifatida o‘rganib, turli darajada gapira olishlari barchaga ma’lum.

Nemis tili hind-yevropa tillar oilasiga mansub bo‘lib, o‘z o‘rnida u german tillar guruhiga kiradi va daniya, norveg va shved, golland, flamand tillariga, shuningdek ingliz tiliga qarindosh sanaladi.

Nemis tili tarixini taxminan 4 qismga bo‘lish mumkin:

- Qadimgi yuqori nemis tili (taxminan 750-1050 yillar)
- O‘rta yuqori nemis tili (1050-1350 yillar)
- Erta yangi yuqori nemis tili (1350-1650 yillar)
- Yangi yuqori nemis tili (1650 – yildan hozirgacha bo‘lgan davr)

O‘rta asrlarga qadar yagona nemis tili yo‘q edi. Turli qabilalarning o‘z dialektlari bor edi. Uzoq vaqt davomida lotin tili yagona yozma til edi. Rivojlanish jarayoni islohotchi Martin Lyuter (1483-1546) bilan boshlandi. U birinchi bo‘lib Injilni lotin tilidan nemis tiliga tarjima qilgan. Yuqori nemis tilining yozma til sifatida tarqalishida Yoxannes Gutenberg tomonidan kitob bosma qilish ixtiro qilinishi muhim rol o‘ynadi. Yangi bosib chiqarish texnikasi tarjima qilingan Injilni keng tarqatishga imkon berdi va bu Lyuter va Gutenbergdan keyin ham Prussiya, ya’ni bugungi Germaniyaning shimolida tarixiy ahamiyatga ega edi. U yerda so‘zlashiladigan nemis tili o‘z chegaralaridan tashqarida namuna bo‘ldi.

Boshqa tillar bilan o‘zaro aloqa nemis tilini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan va hozir ham bu ahamiyatga molikdir. XII asrgacha lotin tili nemis tiliga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, Fenster (deraza) (lat. fenestra), Mauer (devor) (lat. murus) so‘zlari va hokazo. XVI-XVII asrlarda fransuz tilining ta’siri juda kuchli edi. Fransuz tilidan 1200 dan ortiq so‘z va iboralar qabul qilingan; Möbel (mebel), Mode (moda), Adresse (manzil) va shu kabi so‘zlar. XIX asrning oxirida esa ingliz tili nemis tiliga tobora ko‘proq ta’sir qila boshladi: Parlament-(parlament), Sport-(sport)-bu vaqtdan boshlab o‘zlashgan so‘zlar sanaladi. XX asrda nemis tilini rivojlantirishda Amerika-ingliz tili muhim rol o‘ynadi. Shunga qaramay, misol sifatida ba’zi o‘zlashgan so‘zlarni olishimiz mumkin: Teenager-(o‘smir), Manager-(menejer), Joint Venture – (qo‘shma korxon) va boshqa so‘zlar. [2. 115]

Qizig‘i shundaki, til sohasi har doim ham davlat chegaralariga to‘g‘ri kelmaydi. Ayniqsa, Germaniyaning janubida (ya’ni, asosan Bavariyada) ayrim iboralar Avstriyadagi kabi ishlatiladi. G‘arbiy Avstriyada Shveysariyada ishlatilganlarga o‘xshash iboralar keng tarqalgan. Avstriya ichida mintaqaviy farqlar ham mavjud: Sharqiy Avstriya, Markaziy Avstriya, G‘arbiy Avstriya va Janubiy va Janubi-Sharqiy Avstriyani ajratib ko‘rsatish mumkin.[3.48]

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Nemis tilini puxta o‘rgangan kishi birinchi marta Germaniyaga sayohat qilganda, unda biroz qo‘rquv bo‘lishi mumkin. Nemislar biz o‘rganganimizdan ko‘ra ancha boshqacha gapirishadi. Ular sinf xonasi yoki auditoriyadagiga qaraganda ancha tez gapirishadi, ko‘plab so‘z va iboralarning tugash qismini tashlab, butun bo‘g‘inlarni yutib yuborishadi. Ko‘pincha siz ularni deyarli tushunmaysiz. Asta-sekinlik bilan bu kundalik nemis tili tushunarli bo‘lib boradi.

Germaniyada “to‘g‘ri” yuqori nemis tilida deyarli faqat televizion yangiliklar va teatrda gaplashiladi va Hannoverliklar Drezden, Myunxen yoki Kyolnga qaraganda bu tilni yaxshiroq tushunadilar. Ammo Drezden, Kyoln va Myunxenda ham garchi biroz farqli bo‘lsa ham nemis tilida gaplashiladi, chunki har bir mintaqaning o‘ziga xos ovoz ohangi bor. Bundan tashqari, odamlarning gapirish usuli qator boshqa omillarga ham bog‘liq. Savdo sohasidagi sotuvchi ayollar va qurilish ishchilari o‘rta maktab o‘qituvchilari va boshliq kotibalariga qaraganda biroz boshqacha gapirishadi. Shahar va qishloq aholisining so‘zlashuvi ham bir-biridan farq qiladi. Va ularning har biri turli vaziyatlarga lingvistik jihatdan moslashadi: oilada yoki do‘stlar davrasida ota-onalar majlisidagiga qaraganda o‘zlarini ancha erkinroq tutadilar.

Til turli millatlar, davlatlar o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalar o‘rnatishda ko‘prik vazifasini o‘taydi. Tilning muhim tarkibiy qismi hisoblangan nutqiy etiket birliklarini o‘rganish nafaqat tilshunos olimlar, balki har bir inson uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tatsachen über Deutschland / P. Hintereder [u.a.]. – Frankfurt/Main: Societäts Verl., 2007. – 196 S.
2. Bęza, S. Eine kleine Landeskunde der deutschsprachigen Länder / S. Bęza. – WsiP, 2009. – 281 S.
3. Кохановская А. Л. [и др.].– 208 с. Страноведение Германии. Landeskunde Deutschlands. – Минск : МГЛУ, 2021.
4. <https://www.duden.de>.